

## Muhammad Fuzuliy va Uvaysiy

Nusratullo Jumaxo‘ja

Filologiya fanlari doktori

Alisher Navoyi nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori

**Xulosa.** Ushbu maqola buyuk ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliy va ulug‘ o‘zbek shoirasi Uvaysiyning ustod-shogirdlik ijodiy munosabatlarini yoritishga bag‘ishlangan. Maqlada Fuzuliyning “Etmazmidi” radifli g‘azali va shu g‘azalga Uvaysiy bog‘lagan muxammas qiyosiy tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** G‘azal, muxammas, poetika, poetik mahorat, obraz, obrazlilik, badiiy san’at, sifatlash, mubolag‘a, tanosib, mantiqiy izchillik, mutanosiblik

**Məqalə tarixçəsi:** göndərilib – 16.09.2024; qəbul edilib – 27.09.2024

## Muhammad Fuzuliy and Uvaysiy

Nusratullo Jumakhoja

Doctor of Philological Sciences

University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoiy

**Abstract.** This article is dedicated to study the creative relations, especially the master-student relationships of the great Azerbaijani poet Muhammad Fuzuli and the great Uzbek poetess Uvaisi. In the article it is widely analyzed the mukhammas written by the poetess Uvaisi, one of the most talented followers of Fuzuli traditions to the well-known radif ghazal “Etmazmidi” by Fuzuli on a literary-theoretical level.

**Keywords:** ghazal, mukhammas, poetics, poetic skill, image, figurativeness, artistic art, exaggeration, proportion, logical consistency

**Article history:** received – 16.09.2024; accepted – 27.09.2024

## Kirish / Introduction

Uvaysiy Fuzuliyning bir necha g‘azallariga muxammas bog‘lagan. Ushbu muxammaslar Uvaysiy she‘riyatining qator nashrlaridan o‘rin olgan. “Mehring o‘lsa, soqi, bir daf‘i xumor etmazmidi?”, “Ey, ziyanu suddin ixroj majnunvor lafz”, “Istasang ishq, etma ey dil, sabru somondin tama”, “Dilo, maqrubi jonon o‘lma, uldur kori so‘zonlig” misralari bilan boshlanuvchi muxammaslar shular jumlasidandir. Uvaysiyning Fuzuliy g‘azallariga yozgan

muxammaslarini o‘rganishga kirishar ekanmiz, har ikki ijodkor asarları nashrlarida matniy xatolar va noaniqliklar ko‘pligiga duch keldik. Tabiiyki, matniy noaniqlikları mavjud asarlar badiiyati ustida ilmiy tadqiqot olib borish imkonsiz. Shuning uchun, avvalo, tadqiqotimizga asos bo‘lvchi asarlar matnidagi chalkashliklarga aniqlik kiritish muammosi paydo bo‘ldi. Avval matnni sahih va butun holga keltirish kerak.

**Asosiy qism / Main Part**

Fuzuliyning Uvaysiy muxammas bog‘lagan g‘azallaridan biri “etmazmidim” radifli g‘azalidir. Bu g‘azal o‘zbek xalqi orasida juda mashhur bo‘lib, sobiq SSSR xalq artisti Saodat Qobulova uni juda qiyomiga etkazib ashula qilib aytgan. San’atkorning shogirdlari ustozning xonishlariga hamon izdoshlik qilmoqdalar.

Dastlab, Fuzuliyning “etmazmidim” radifli g‘azali va unga Uvaysiy bog‘lagan muxammas matnini tekshirib ko‘ramiz. Ma’lumki, O‘zbekistonda Fuzuliy asarlarining bir necha nashrlari amalga oshirilgan. “Etmazmidi” radifli g‘azal matni turli nashrlarda har xil berilgan. Nuqson siz birorta nashri yo‘q. Fuzuliyning “etmazmidim” radifli g‘azali avval 1959 yilda chop etilgan “Devon”da ko‘zga tashlanadi. Asli 8 baytli bu g‘azal ushbu nashrda to‘liq ifodalanmagan. Unda 7 bayti berilgan, xolos. Boshqa nashrlarda mavjud quyidagi bayt mazkur nashrda aks etmagan:

*Nesha mahram aylading sham’i, mani mahrum  
edub,  
Ban saning bazmingda jon naqdin nisor  
etmazmidim? [2, b.202]*

Avvalo, Fuzuliy asarlarining til xususiyatlari diqqatga sazovor. Nazarimizda, o‘zbek adiblarini, birinchi navbatda, Fuzuliy asarlarining go‘zal va jozibador til hamda uslubi maftun etgan. Xo‘sh, Fuzuliyning o‘zbek tilida nashr etilgan asarlarini tarjima deyish mumkinmi? Yo‘q. Chunki Fuzuliy qardosh xalq va til vazili. Uning tili bizga shunchalik yaqin va tushunarliki, ozarbayjoncha asarlarini o‘zbek tiliga tarjima etishga ehtiyoj ham zaruriyat yo‘q. O‘zbekistondagi adabiyot ahli ham, keng kitobxonlar omlesi ham Fuzuliy asarlarini asliyatda bemalol o‘qib, tushuna oladi. Shuning uchun Fuzuliy asarlari necha marta o‘zbek tiliga nashr qilingan bo‘lsa ham, nashrga tayyorlovchi, mas’ul muharrir, muharrir belgilangan, lekin tarjimon tayinlanmagan. Shunga qaramay, Fuzuliy asarlarini hozirgi zamon o‘zbek adabiy tiliga moslashtirishga urinishlar bor. Biroq bu ishni

amalga oshirganlar ham tarjimonlikka da’vo qilmaganlar. Xo‘sh, qaysi nashr Fuzuliy asarlari tilining o‘zligini ko‘proq saqlagan? Fuzuliy asarlarining hozirgi o‘zbek tiliga moslashtirilgan shakli ma’qulmi yoki o‘zligini saqlagan tili yaxshimi?

Atoqli olim To‘xtasin Jalolovning ma’lumot berishicha: “Fuzuliy asarlari Oktyabr revolyusiyasidan ilgari O‘zbekistonda yigirma to‘rt daf‘a nashr etilib, har bir savodli kishining qo‘ldan tushmas kitobi bo‘lib qolgan” [1, s.8]. Fuzuliy devonining 1959 yildagi nashrini T.Jalolov va M.Muinzoda amalga oshirgan. 2009, 2014 yillardagi nashrlarini esa adabiyotshunos olim Ergash Ochilov amalga oshirgan. T.Jalolov va M.Muinzoda nashr jarayonida mumkin qadar Fuzuliy tilining o‘zligini saqlashga harakat qilgan. Masalan, tahlil etilayotgan g‘azalning “etmazmidim”, “go‘rsaydim”, “ban”, “go‘rmaga”, “banim”, “bango”, “santak”, “dutdig‘im”, “go‘nglim” kabi so‘zlarini asliyatdagiday saqlagan. Bu esa o‘zbek g‘azalxoniga ozarbayjon tili milliy jarangini va milliy koloritini aynan his qilish imkoniyatini bergen. E.Ochilov nashrlerida esa bu so‘zlar “etmazmidim”, “ko‘rsaydim”, “man”, “ko‘rmaga”, “manim”, “mango”, “santak”, “tutdig‘im”, “ko‘nglim” shaklida asosan o‘zbekchalashtirilgan. Albatta, noshir asar o‘zbek kitobxoniga juda tushunarli bo‘lishi niyatida shunday ish tutgan. Lekin, bizning nazarimizda, so‘zlarning o‘g‘uz lahjasidagi talaffuzi o‘zbek kitobxonlari uchun tushunarli, qiziqarli va jozibaliroq.

Nashrlar aro qiyosiy o‘rganganda, Fuzuliy g‘azalining nisbatan sahni quyidagicha:

*Aql yor o‘lsaydi, tarki ishq yor etmazmidim?  
Ixtiyor o‘lsaydi, rohat ixtiyor etmazmidim?  
Lahza-lahza suratin go‘rsaydim ul shirin labin,  
San kibi, ey Besutun, man ham qaror  
etmazmidim?  
Nesha mahram aylading sham’i, bani mahrum  
edub,  
Ban saning bazmingda jon naqdin nisor  
etmazmidim?*

*Yor ila ag'yori hamdam go 'rmaga o 'lsaydi  
sabr,  
Tarki g'urbat aylayub, azmi diyor etmazmidim?  
Voizing kufrin rasvolig 'imdin qil qiyos,  
Anda sidq o 'lsaydi, ban taqvo shior  
etmazmidim?  
Ul guli xandonni go 'rmak mumkin o 'lsaydi  
bango,  
Santak, ey bulbul, gulistona guzor etmazmidim?  
Dardimi olamda pinhon tutdig 'im nochordir,  
O'g'rasaydim, bir tabiba oshkor etmazmidim?  
Ey Fuzuliy, dog'i hijroni-la yonmish go 'nglimi,  
Lolalar ochsaydi, sayri lolazor etmazmidim?*<sup>1</sup>

Nashrlarda ayrim baytlarning joylashish tartibida tafovut bor.

Uvaysiyning Fuzuliy g'azaliga bog'lagan muxammasi shoiraning 1959 yili chop etilgan "Devon"ida bor. Biroq ushbu nashrda Fuzuliyning sakkiz baytli g'azaliga etti bandli muxammas berilgan [3, b.200-201]. G'azalning maqta baytiga bog'langan muxammas bandi yo'q. Bizningcha, bu ham nashr jarayonidagi chalkashlik bo'lsa kerak. Chunki Uvaysiyday yetuk shoira chala muxammas yozishi mumkin emas edi. Shuningdek, muxammas matnida Fuzuliy g'azalining so'z-iboralari o'zgargan, misralari o'rni almashgan kabi xatolar ham ko'p. Jumladan, matladagi birinchi misrada "tarki ishq yor" iborasi o'rniga ikkinchi misradagi "rohat ixtiyor" iborasi yozilgan. Matlaning ikkinchi misrasida esa "rohat ixtiyor" iborasi o'rniga "banda ixtiyor" iborasi yozilgan. Muxammassing uchinchini bandida Fuzuliy qalamiga mansub "Nesha mahram aylading sham'i, bani mahrum edub" va Uvaysiyning "Qovlab erding san bani, parvonani ma'dum edub" misrasi o'rni almashtirib yuborilgan. Fuzuliyga xos "bani" so'zi "bizi" deb o'zgartirilgan. To'rtinchi baytda Fuzuliy baytidagi "o'g'rasaydim" so'zi "o'g'risaydim" shaklida xato yozilgan. Beshinchi bandda Fuzuliy g'azalidagi "hamdam" so'zi tushirib qoldirilib, matnda bo'lmanan "agar" so'zi kiritilgan. Bundan tashqari, muxammas matnida yana bir qancha imloviy-ishoraviy nuqsonlar ham bor. Tabiiyki,

bu nuqsonlar g'azal va muxammasda ma'no o'zgarishlariga sabab bo'lgan. Ushbu nashrni hazilakam olimlar emas, nashrga tayyorlovchi Aziz Qayumov, E'tibor Ibrohimova va mas'ul muharrir Sabohat Azimjonovalar amalga oshirganlar. Nazarimizda, bular o'sha davr matnchiligi darajasi-saviyasi bilan bog'liq nuqsonlar bo'lsa kerak. Biz matnni mumkin qadar tuzatib, so'ng undan foydalandik.

Fuzuliy g'azali mavzu jihatidan oshiqona, kompozitsion xususiyatlariga ko'ra yakpora g'azaldir. G'azal ham, muxammas ham muraddafdir. G'azal va muxammas dunyoviy muhabbat, ya'ni ishq majoziy bilan yo'g'irilgan. Unda tasavvufiy talqinlar yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Shundan kelib chiqaroq, g'azal va muxammasning lirik qahramonlari oshiq va ma'shuq, voiz hamda raqibdir. G'azal va muxammas mazmuni lirik qahramon – oshiq tilidan izhor etilgan. G'azal matlasida lirik qahramon ishq jununi halovat bermayotganidan, majnunholligidan shikoyat qiladi:

*Aql yor o 'lsaydi, tarki ishq yor etmazmidim?  
Ixtiyor o 'lsaydi, rohat ixtiyor etmazmidim?*

[1, b.150]

Matladan oshiq ruhiyatida ishq jununi xuruj etganidan, uni aqlu hush tark etganligini anglab olish mumkin. Oshiq: "Agar mena aql yor bo'lsa edi, yor ishqini tark etmazmidim", deya o'kinadi. "Inon-ixtiyorum ishqning majnunona kechinmalari izmida, beixtiyorlikda ixtiyorim yo'q. Agar ixtiyorim o'zimda bo'lganida, ishqning mehnat-mashaqqatlarini tark etib, rohat-farog'atni ixtiyor etmazmidim", deya zorlanadi u. Uvaysiy Fuzuliyning ushbu otashin misralari oldidan rindona sarxush satrlar bitadi:

*Mehring o'lsa soqi, bir daf'i xumor  
etmazmidim,  
Chehrayi zardimni men gulgun uzor  
etmazmidim,  
Bo 'lmasaydi ko 'nglim, or etmakdin or  
etmazmidim? [3, b.200]*

Uvaysiy lirik qahramoni yorga murojaat etib aytadiki: "Ishq savdosidan va g'avg 'osidan juda sarxush va xumor bo'ldim. Dardimga

197

<sup>1</sup> Ушбу матн мавжуд нашрлардан биз томонимиздан умумлаштириб тузилди.

*taskin berish uchun agar O'zing soqiy bo'lib ishq mayidan limmo-lim qadahlar quyib tursang, muhabbat mayidan sipqora-sipqora xumorni daf etmasmidim? Ishq sharobi ta'sirida hajringda sarg'aygan yuzlarimga qon yugurib, gulgun tus olmasmidi? Agar ishqing yo'lida ko'nglimning qat'iyati bo'lmanida, sarmastlik ta'sirida or etishdan or etmasmidim?" Uvaysiy satrlari Fuzuliy misralariga juda mos tushgan va mazmunan ulanib ketgan. Fuzuliy g'azalining ikkinchi bayti oshiqning beqarorlik holatini tasvirlaydi:*

*Lahza-lahza suvratin go'rsaydim ul shirin  
labin,  
San kibi, ey Besutun, ban ham qaror  
etmazmidim. [1, b.150]*

Bayt mazmunidan ma'lum bo'ladiki, lirik qahramon shirinlab yorning husnu jamolini ko'rib, oshiqi beqaror bo'lgan. Ammo u mahliqoni ikkinchi bor ko'rishning imkoniy yo'q. Oshiq ko'ngil esa betoqat, yorni qayta-qayta ko'rib, ko'ngil taftini bosishga mushtoq. Hijron beqaror holga solganidan, oshiq Besutun tog'iga murojaat qiladi, chunki Besutun tog'i og'irligidan qimir etmay bir joyda barqaror turadi. Shunga binoan, Besutunga lirik qahramon nola qilib aytadiki: "Agar shirinlab yorimning suratini lahza-balalha ko'rib turishga, ya'ni diydorga, visolga tuyassar bo'lganimda, men ham sendek barqaror bo'lmasmidim?"

Uvaysiy esa o'z muxammasi misralarida yor husnu jamolidagi shirin labga qo'shimcha qator maftunkor xususiyatlarni izchil sharhlaydi:

*Vahki, yetkurdı halokat furqati ul mahjabin,  
Jomi jamshidi labi yokim Sulaymoni nigin,  
Yoki qandu shahdu shakkar yo naboti ankabin.  
[3, b.200]*

Bu satrlarda Fuzuliy tasviridagi lab shirinligiga taalluqli qator shirinliklar uyushib kelganligi tufayli, misralar xuddi shiradek bir-biriga jippa yopishadi. Uvaysiy birinchi misrasida yor jamoliga nisbatan "mahjabin", ya'ni peshonasi oydek oppoq, oypeshona ifodasini ham ishlatadi. Bu mumtoz poetikada kam uchraydigan ifodadir. "Evohkim,

*oypeshonə yorning hajri meni halokatga yetkurdy", deydi lirik qahramon. Keyingi misrada yor labi jomi Jamshidga va Sulaymon niginiga o'xshatiladi. Bu orqali shoira talmeh san'atini qo'llaydi. Ma'lumki, Jomi Jamshid afsonaviy podshoh yasattirgan tilsimli qadahdir. Alisher Navoyi o'z asarlarida tasvirlashicha, shoh Jamshid hakimlarga buyurib, ikkita sehrli jom yasattiradi. Jomi ishratfizoy nomli birinchi qadahdagı may ichgan bilan tugamas, limmolim to'liq turaverar, qiyshaytirilsa ham, mayi to'kilmas, bitmas-tuganmas may xazinasi ekan. Jomi getinamo nomli qadahdan may ichganda, dunyoda yuz berayotgan hodisalar ko'rinish turar ekan. Ushbu jomni jomi jahonnamo, jomi jahonbin ham der ekanlar. Uvaysiy hajrida kuydirgan yor labini mana shunday sehrli-sinoatli jomga o'xshatadi. Bu obraz yor labining naqadar lazzatbaxsh, bitmas-tuganmas mazaga ega ekanligini tasvirlashga xizmat qilgan. Sulaymoniy nigin obrazi ham yor labini hayratomuz darajada bo'rttirib tasvirlashga muvaffaq etgan. Ma'lumki, nigin so'zi ikki – uzuk va muhr ma'nolariga ega. Uzuk ham, muhr ham kichkina va dumaloq shaklga ega. Bu bilan Uvaysiy yor labini mana shu narsalar darajasida kichraytirib tasvirlashga erishgan. Yor labi va og'zining kichikligi esa mumtoz adabiyotda go'zallik namunasidir. Uchinchi misrada yor labi qandu shahdu shakar, navvot va asalga mengzatiladi. Ko'rinish turibdiki, Uvaysiy o'z misralarida Fuzuliyning shirin lab haqidagi ta'rifini yana o'n barobarga kuchaytirgan. Bu yo'lda sifatlash, o'xshatish, mubolag'a, tanosub san'atlari bilan birga "yokim", "yoki", "yo" bog'lovchilari orqali tajohuli orifona badiiy usulini ham biryo'la tasarruf etgan. Bunday san'atpardonlik Fuzuliy va Uvaysiy poetik mahoratining uyg'un va omuxtaligini ta'minlagan. G'azal va muxammasning keyingi bandida quyuq obratzilik yanada avjiga chiqadi. Fuzuliy bayti quyidagicha badiylashgan:*

*Nesha mahram aylading sham'i, bani mahrum  
edub,  
Ban saning bazmingda jon naqdin nisor  
etmazmidim? 2, b.202]*

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda parvona oshiq, sham esa ma'shuq obrazi. Ba'zan esa o'rni almashib, sham oshiq, ma'shuqa esa parvona obrazida ham keladi. Ushbu baytda endi sham raqib obrazi o'mida kelgan. Baytda parvona obrazi tilga olinmaydi. Lekin shoirning mahorati ham shundaki, lirik qahramon murojaat etgan ob'ektan mantiqan parvona obrazi anglashiladi. Chunki sham bor joyda parvona, parvona bor joyda sham anglashilishi, nazarda tutilishi mumtoz poetikada qonuniyatdir. Sham – parvonaning, parvona esa – shamning mahramidir. Oshiq – lirik qahramon ma'shuq – parvonaga ta'na qiladi: “*Meni vaslingdan mahrum etib, shamni suhbatingga mahram aylading. Shamni emas, meni visoling bazmiga mahram etsang, jonimni senga sadqa etmasmidim?*” Baytda shoir tazod san'atidan mohirona foydalangan, “mahram” va “mahrum” so‘zlaridagi mantiqan zidlik va arab yozuvidagi shakily o‘xshashlikdan payvasta san'at yaratgan. Fuzuliyning ushbu baytini quvvatlash va badiiy sharhash maqsadida Uvaysiy uning oldidan quyidagi misralarni qo‘shadi:

*Maqrun etting vaslinga jon so 'zimi ma 'jum  
edub,  
Yuz o 'gurding, ey sanam, begonalig 'ma 'lum  
edub,  
Qovlab erding san bani parvonani ma 'dum  
edub.* [3, b.200]

Mazkur misralarni sharhashga kelganda, shuni tan olishga to‘g‘ri keldiki, kezi kelganda, Uvaysiy she’rlarini tushunish Fuzuliy she’rlaridan ko‘ra qiyinroq ekan. Bandning birinchi misrasida “*maqrun*”, “*ma 'jum*” kabi arabcha so‘zlar qo‘llanadiki, ular mumtoz matnlar tarkibida kam uchraydi. “*Maqrun etmoq*”ni lug‘atlardan osonlik bilan topdik. U “*yaqinlashtirmoq*”, “*yondashitrimoq*” ma’nolarini anglatar ekan. Lekin “*ma 'jum*” so‘zi topilmas matoh bo‘lib chiqdi. Bu so‘z “Navoyi asarlari lug‘ati”, 4 tomlik “Navoyi asarlari tilining izohli lug‘ati”, “Farhangi zaboni tojiki”, “G‘iyosul-lug‘ot” kabi lug‘atlardan ham topilmadi. Yaqin hamkasblardan so‘radik, ular ham aniq javob aytishholmadi. O‘ylab qoldik, Uvaysiy tili

lug‘ati naqadar boy! Bamaslahat shu fikrga keldikki: “*Vasling uchun jonimni badal aylading*” ma’nosи chiqar ekan. Ikkinci misradan ma’shuqa oshiqni o‘zidan begonalashtirganligidan shikoyat o‘rin olgan. Uchinchi misra Uvaysiy fikrini Fuzuliy fikriga payvandlovchi misra. Unda Fuzuliy baytining birinchi misrasidan anglashilgan, lekin tilga olinmagan parvona obrazi qo‘llanadi. Shuning o‘zi bilanoq Uvaysiy Fuzuliy baytidagi obrazlar tizimini to‘ldirdi, tartibga soldi. Uvaysiy aytmoqdaki, sen meni parvonani quvlab yo‘qotding. Ana endi Fuzuliyning “*meni mahrum etib, shamni mahram aylading*”, degan ifodasi mantiqan kuchaydi, aniqlashdi. Endi Uvaysiy bilan Fuzuliyning lirik qahramoni hamovozlik qilib, yakdillik bilan gina qilyaptiki: “*Haqiqiy oshiq men, ya 'ni parvona edim. Sen meni vaslingdan mahrum etib, shamni mahram aylading, men o 'zim parvona bo 'lib, visoling bazmida jonimni nisor etsam, bo 'lmasmidi?!*” G‘azal va muxammas mualliflarining mana shunday hamovozlik kasb etishi, fikran, ma’nan va ruhan birlashib ketishi muxammas janrining o‘ziga xos muhim xususiyatlaridandir. Fuzuliy g‘azalining keyingi bayti ishq dardi izhoridan iboratdir:

*Dardimi olamda pinhon dutdug 'um nochordur,  
O 'g 'rasaydim, bir tabiba oshkor etmazmidim.*

[1, b.150]<sup>2</sup>

Lirik qahramon dardini dunyodan sir saqlagani uni cheksiz azob-uqubatlarga giriftor etganidan izardi. Biror tabibga izhor etsam, dardimga chora topilarmidi, deya ilhaq bo‘ladi. Baytga bog‘langan Uvaysiy misralari lirik qahramon dardu holini yanada chuqurroq sharh etadi:

*Ishq ranjurini daf'i lutfi ul dildordur,  
Ishq afsun qildikim, ne boshida sangsordur,  
Dilg 'a asrorin yashurmoqdin tanim bemordur.*

[3, b.200]

<sup>2</sup> Uvaysiy devoni nashrida nuqsonlar borligi uchun biz Fuzuliy baytlariga Fuzuliy devoni nashriga gavola berdik.

Unda izohlanishicha, ishq dardining birdan-bir chorasi yorning lutfu karami, rahm-shafqati. Ishq afsun etgan oshiq toshbo‘ron ostida qolgan majnundek bir ahvolda. Ishq dardi – ma’naviy-ruhiy dard, lekin uni dilda yashirish vujudni jismoniy halokatga ham olib kelar ekan. Fuzuliy bayti sof lirik kechinma ifodasi edi. Unga bog‘langan Uvaysiy satrlari asarni ishqqa doir falsafiy fikr bilan boyitdi. Fuzuliy g‘azalining navbatdagi bayti ag‘yor – raqib haqidagi an‘anaviy mazmunda:

Ushbu bayt Fuzuliy g‘azalidagi yor haqidagi tasavvurni bir oz o‘zgartirishga asos beradi. Chunki unda yor uchun tarki diyor etgan oshiq siymosi gavdalanadi. Baytdan: “*Yorni g‘ayr – begona bilan birga ko‘rishga toqatim etganida, g‘urbatni tark etib, o‘z diyorimga qaytib ketmasmidim?*” degan mazmun chiqadi. Bunday mazmun g‘azaldagi yor – ma’shuqa emas, balki boshqa bir shaxs emasmikin, degan gumon tug‘diradi. Shoir bir muddat o‘z diyoridan boshqa erda yashagan, g‘urbatda, ya’ni vatandan ayriliqda bo‘lgan. Kim bilandir do‘st tutingan va unga nisbatan umid-ilinjiga rahna etgan hamda o‘z diyorini qo‘msagan bo‘lishi mumkin. Bu baytning zamirida Fuzuliy biografiyasiga oid muhim bir dalil yashiringandek ko‘rinadi. Uning chinakam mazmunini Fuzuliy hayotiga doir ma’lumot orqali oydinlashtirish mumkin. Ushbu baytga Uvaysiy bog‘lagan misralar quyidagicha:

*Ey dilo, yuz ming havas birla bukun qilma jabr,  
G'arq etarmen olaming, bo 'ldim ko 'zimdur  
misli abr,  
Yordur islomi nozik, kufrdur ag 'yori gabr.*  
[3, b.200]

Uvaysiyning ushbu misralari lirik chekinish tarzida bitilgandek. Chunki ular Fuzuliy baytiga mazmunan chambarchas bog‘lanmaydi. Birinchi misrada lirik qahramon o‘z ko‘ngliga murojaat etib, uni ortiqcha hoyu havasga berilmaslikka da’vat etadi. Ikkinchi misrada

ko'zim yomg'ir to'la bulutdek, ya'ni ko'nglim g'amga to'lib turibdi, ko'z yoshlarimni to'ksam, olamni g'arq etgudekman, degan mazmun ifodalangan. Unda "*bo'ldim*" so'zi yanglish yozilgan, mazmunga mantiqan bog'lanmaydi. Uchinchi baytda yuqoridagi va Fuzuliy baytiga umuman bog'lanmaydigan falsafiy mazmun mavjud. Bu misra faqat "*ag'yor*" so'zi orqali Fuzuliy baytiga bog'lanadi. Undan islom dini menga yor, zardushtiylikka mansub majusiy esa begona, degan mazmun anglashiladi. Ushbu bandda Uvaysiy Fuzuliy baytiga munosib satrlar yozishga intilgan-u, natija ko'ngildagidek chiqmaganga o'xshaydi. Yoki Uvaysiy satrlarini boshqacha tushunish kerakdir balki. Navbatdagi baytda Fuzuliy lirik qahramoni o'zining ruhiy ahvolini voizning riyokorligi bilan bog'laydi:

*Voizing kufrin banim rasvolig ‘imdin qil qiyos,  
Anda sidq o ‘lsaydi, ban taqvo shior  
etmazmidim? [1, b.150]*

“Voizning kufri” bu erda va’z aytuvchining sidqidildan, qat’iyat bilan, ishonarli, samimiy e’tiqod bilan gapirmasligi ma’nosida kelgan. “Soxtagarchilik, riyokorlik ham kufr”, demoqchi shoir. “Rasvolig” esa imon-e’tiqod nuqtayi nazaridan qat’iyatsizlik, tuturiqsizlik, beqarorlik ma’nosida qo’llangan. Lirik qahramon: “Mening beqarorligimga voizning astoydil emasligi sabab, agar uning nutqida sidqidillik bo’lganida, men taqvo hosil etmasmidam?” demoqchi. Bunda shoir voziga ham, o’ziga ham malomat qilayotir. Muxammasda Fuzuliyning nuqtai nazarini quvvatlovchi quyidagi satrlar bitilgan:

*Ishq savdosini tuttum menki dil jon birla pos,  
Sarfraz etgan yo 'q erdi to banimtek hech nos,  
Sidqima kuydurdim andog ' dardi so 'zondin  
libos.* [3, b.2011]

Uvaysiy satrlaridan shunday mazmun chiqadiki: “*Ishq savdosini men jonu dilim birlashib, shunday mahkam tutdimki, mengacha odamlar ishqni bu qadar e’zozlagan, ulug’lagan emas edilar. Ishqda sidqidilligimga o’tli, otashin darddan libos kivdirdim*”. Ushbu

mazmun Fuzuliy baytiga bog‘lanib, “shunchalik sidqim voizning riyokorligi sababli bir pul bo‘ldi”, degan mantiqiy xulosa chiqaradi.

Fuzuliyning keyingi baytida visoldan umidvorlik izchil davom etadi:

Uvaysiyning bu baytga mazmunan hamohang satrlari quyidagicha:

*Holimi anglab, o 'shal gulg 'uncha kulsaydi  
bango,  
Rostg 'a afloklar charxi urulsaydi bango,  
Kosh ul paymonai hijron to 'lsaydi bango.*

[3, b.201]

Ikki shoir ham yor obrazini “*guli xandon*” va “*gulg‘uncha*” so‘zлari bilan ifodalaydilar. Fuzuliy lirik qahramoni gulг‘unchani bir ko‘rish orzusida bo‘lsa, Uvaysiy lirik qahramoni koshki o‘sha guli xandon menga ham bir kulib boqsaydi, degan armonda. Uvaysiy lirik qahramoni koshki hijron paymonasi to‘lsayu, visol onlari nasib etsa, deya Fuzuliy lirik qahramonining visol orzusida bulbul kabi gulzor sari parvoz etish istagiga bog‘lanadi.

## Natija / Conclusion

Xulosa qilib aytganda, Fuzuliy va Uvaysiy ishqqa falsafiy munosabatda yakdil hamda hamfikrdirlar. Uvaysiy Fuzuliy g'azaliga munosib muxammas yaratgan. Muxammasdagi Fuzuliy baytlari bilan Uvaysiy satrlari mazmun va mantigan yaxlitlik kasb etgan. Ular o'zaro

ajralib turmaydi, balki badiiy tasvir uyg‘unligi, obrazlar tizimi, til va uslub mutanosibligi bilan chambarchas bog‘liq. Fuzuliy g‘azali Uvaysiy badiiy mahorati sayqal topishida muhim adabiy tajriba sifatida xizmat qilgan.

## **Adabiyot / References**

1. Fuzuliy. Devon. Nashrga tayyorlovchilar: T.Jalolov, M.Muinzoda. O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti. T., 1959. – 251 bet.
  2. Fuzuliy. Qalb gavhari. “Hilol-nashr” nashriyoti, T., 2014. – 430 bet.
  3. Uvaysiy. Devon. “Fan”, T., 1959. – 200-201-betlar.

## Məhəmməd Füzuli və Üveysi

Nüsrettulla Cüməxoca

Filologiya elmləri doktoru

Əlişir Nəvai adına Özbək dili və Ədəbiyyatı Universiteti

**Annotasiya.** Bu məqalə dahi Azərbaycan şairi Məhəmməd Füzuli və böyük özbək şairəsi Üvəysinin yaradıcılıq əlaqələrinin, xüsusən, bədiilik və sənətkarlıq sırlarının, ustad-şagirdlik münasibətlərinin dərindən araşdırılmasına həsr olunub. Araşdırımada Məhəmməd Füzulinin dünya şöhrətli “Etməzmidim” rədifi qəzəlinə Füzuli ənənənlərinin Türküstən elindəki ən istedadlı davamçılarından biri olan Üvəysinin yazdığı műxəmməs ədəbi-nəzəri və müqavιəslı müstəvidə geniş təhlil olunur.

**Açar sözlər:** Qəzel, müxəmməs, poetika, poetik məharət, obraz, obrazlılıq, bədii sənətlər, mübaliğə, tənasüb, məntiqi ardıcılılıq